

**TARBIYA NAZARIYASI – PEDAGOGIKA FANINING MUHIM BO‘LAGI
SIFATIDA**

Suvonova Ma’mura Yusupovna

Qarshi Davlat Universiteti o‘qituvchisi

ORCID:<https://orcid.org/0009-0007-8269-1931>

Email: suvonova8100@gmail.com

Maftuna Qultoyeva Azamat qizi

Email: kultoyevamaftuna@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.04.2026

Revised: 24.04.2026

Accepted: 25.04.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*Tarbiya jarayoni,
tarbiya qonuniyatlari,
tarbiya printsiplari,
ijtimoiy tarbiya, milliy
tarbiya, pedagogika,
ma’lim, jamiyat,
tarbiya, ko’nikma,
ma’naviyat, ta’lim-
tarbiya, ta’lim tizimi,
malaka, ta’lim
nazariyasi, jamiyat
taraqqiyoti, o‘qitish
jarayoni, bilim, yosh
avlod, kishilik*

Inson faoliyati maqsadsiz bo‘lmaydi. Har qanday faoliyat ham ma’lum maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Maqsad bu- qilinadigan ishning pirovard natijasi. Tarbiya ham faoliyat. Tarbiyaning maqsadini tarbiyachi belgilamaydi. U ob’ektiv xarakterga ega. Tarbiya maqsadi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumi bilan bog‘liq bo‘ladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy tuzumga jamiyat talablariga bog‘liq bo‘lib shu jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlari talablaridan kelib chiqadi. Tarbiya maqsadi jamiyat taraqqiyoti talablarini o‘zida aks ettiradi. Tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash insoniyat tsivilizatsiyasining rivojida birdan-bir shart bo‘ldi.

*jamiyati, marbiya
maqsadi, tarbiyachi.*

Tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri yoshlarning ongi, qalbiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, ularda milliy ong, g'ururni shakllantirishdir.

Ta'lim tarbiyaning maqsadi ob'ektiv harakterga ega. U har bir jamiyatning modiy-ma'naviy ehtiyojlaridan hosil bo'ladi. Pedagogik tizimning barcha qismlari ta'limning maqsadini royobga chiqarishga xizmat qiladi. Shaxs shakllantirish maqsadi ta'limning mazmunini belgilaydi.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning millatning kelajagi yo'q.

Prezidentimiz tomonidan yaratilgan va ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etilgan "Milliy istiqlol g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillar" barkamol avlodni shakllantirishning yangi kontsepsiyasidir. Unda komil insonga xos eng muhim sifatlar iymon-et'qod, vatanparvarlik, yurt tinchligi uchun, Vatan ravnaqi uchun kurash, millatlararo totuvlik kabi ko'p g'oyalar ifodalangan.

Tarbiyaning asosiy vazifasi shaxsning aqliy axloqiy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi uning qobiliyatlari har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaning tarkibiy qismlari quyidagilar:

- aqliy tarbiya;
- axloqiy tarbiya;
- mehnat tarbiyasi;
- iqtisodiy tarbiya;
- huquqiy tarbiya;
- jismoniy tarbiya;
- ekologik tarbiya;
- estetik tarbiya.

Tarbiyaning vazifasi shaxs tamonidan milliy va umuminsoniy madaniyat qadriyatlarining o'zlashtirilishiga erishishdir.

Shaxsda madaniyat asoslarini shakllantirish zamonaviy tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Shaxs madaniyatining asosiy jihatlari quyidagilar: siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat, iqtisodiy va mehnat madaniyati; aqliy, axloqiy, ekologik, badiiy, jismoniy madaniyat, muloqot madaniyati va oilaviy munosabatlar madaniyati.

Aqliy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yetakchi tarkibiy qismidir. Aqliy tarbiya o'quvchi yoshlarni tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi ilmiy bilimlarni, fan asoslarini egallab olishlarini, ularda ilmiy dunyoqarash, mustaqil fikrlashni, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qoyadi.

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mohiyati, mazmuni, qonuniyatlari, printsiplari, metodlari hamda tashkil etilishi masalalarini o'rganadi.

Tarbiya jarayoni, deymiz. Jarayon o'zi nima? Har qanday jarayon – harakatdir, rivojlanishdir, moddiy dunyodagi narsalar, hodisalarning asta-sekin o'zgarishidir. Tarbiya jarayoni ham yosh avlodda aqliy kuchlarni rivojlantirishga va ma'naviy – axloqiy sifatlar, e'tiqodlarni, ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir.

Shaxs kamolotida tarbiya yetakchi rol oynaydi. Tarbiya rivojlanayotgan shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish boyicha faoliyatni tashkil etishdan iborat, aniq maqsadga qaratilgan va boshqariladigan jarayondir.

Ijtimoiy-tarixiy tajribani avloddan avlodga o'tishi, uni yangi avlod tomonidan o'zlashtirilishi natijasida shaxs hayotga, mehnatga va muayyan kasbga yo'naltirish jarayoniga tarbiya deymiz.

Tarbiya ilmiy, boshqariluvchi, aniq maqsad sari yo'naltirilgan jarayondir.

Tarbiya shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, shaxsni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok ettirishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmuidir.

Ilmiy manbaalarda, pedagogik adabiyotlarda, pedagogikadan darslik va qo'llanmalarda tarbiyaga yuqorida keltirilgandek turlicha ta'rif beriladi va ularning barchasi o'z o'rnida to'g'ridir.

Tarbiya ijtimoiy hodisadir, kishilik jamiyatiga xos hodisadir. Inson ham, uning tarbiyasi ham o'z mohiyati bilan ijtimoiydir. Ya'ni inson faqat jamiyatda, insonlar muhitida, o'zaro munosabatlar jarayonida, katta avlodga xos ijtimoiy tajribani o'zlashtirib olish orqali shakllanadi. Tarbiyaning ijtimoiy hodisa sifatida mohiyati ana shu.

Tarbiya jarayondir, tarbiya keng ma'noda yoshlarni, insonlarni ob'ektiv va sub'ektiv ta'sirlar asosida aqliy, axloqiy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayonidir.

Tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya esa yosh avlodni jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqod, axloqiy malaka va ko'nikmalarni, extiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat.

Pedagogik jarayon agar tarbiya ta'limda oldin yursagina yaxshi samaralar beradi. Tarbiya ta'limga nisbatdan ustivor bo'lishi kerak.

Oila, turli jamoa tashkilotlari, fan-texnika, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari, radio, televidenie va boshqalar ham tarbiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiya jarayonida shaxsning turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy aqliy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlari tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustakamlanadi.

Tarbiya-O'zbekiston mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlanishida, jamiyatimiz ijtimoiy taraqqiyotida, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishda hal qiluvchi qudratli omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Mavlonova., O. To'raeva. Pedagogika. Toshkent "O'qituvchi". 2001 y.
2. A. Zunnunov. Pedagogika nazariyasi (o'quv qo'llanma). Toshkent. 2006 y.
3. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T. 2004.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003 y.
5. O'zbek pedagogikasi tarixi (qo'llanma). Professor A. Zunnunov tahriri ostida. Toshkent. 1997 y.
6. R. Mavlonova., O. To'raeva. Pedagogika. Toshkent "O'qituvchi". 2001 y.
7. A. Zunnunov. Pedagogika nazariyasi (o'quv qo'llanma). Toshkent. 2006 y.